

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNING LIDERLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI

Tajimuratova Shaxnoza Saginbaevna,
Berdaq atındađı QMU asistent oqitwshısı

G.Aldjanova,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Anotatsiya. *Bu maqolada integrativ yondashuv asosida talabalarda liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga doir mazmun, pedagogik model va pedagogik shart-sharoitlar ilimiy mehnatlar haqida sız etilgan.*

Kalit sızlar: *integratsiya, liderlik, kompetensiya, talabalar, madaniyat va san'at, interfaol metodlar.*

Abstract. *This article discusses the content, pedagogical model and pedagogical conditions of scientific work on the development of leadership competencies in students based on an integrative approach.*

Keywords: *integration, leadership, competence, students, culture and art, interactive methods.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются содержание, педагогическая модель и педагогические условия научной работы по развитию лидерских компетенций у учащихся на основе интегративного подхода.*

Ключевые слова: *интеграция, лидерство, компетенция, учащиеся, культура и искусство, интерактивные методы.*

Kirish. Jahonda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi hamda xalqaro madaniy integratsiyaning kengayishi san'at va madaniyat sohasini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. Bugungi kunda madaniyat va san'at ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda integrativ yondashuvlarni qo'llash orqali bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalari bilan bir qatorda liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasida san'at va madaniyat sohasini boshqarishga oid bilim, ko'nikma va malakalarni jamoaviy hamkorlik, loyiha faoliyati, kommunikativ yondashuv hamda amaliy boshqaruv faoliyati bilan integratsiyalash asosida o'qitish samarali natijalar berayotgani kuzatilmoqda. Chunki zamonaviy madaniyat va san'at sohasi mutaxassisdan nafaqat ijodiy salohiyat, balki tashabbuskorlik, strategik fikrlash, boshqaruvchanlik va jamoani samarali yo'naltira olish kabi liderlik kompetensiyalarini ham talab etadi.

Dunyoda ta'lim tizimining integratsion xarakter kasb etishi hamda ta'lim menejmenti sohasining jadallik bilan rivojlanishi san'at va madaniyat yo'nalishida kadrlar tayyorlash mazmunini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda bo'lajak mutaxassislarning nafaqat kasbiy bilim va amaliy ko'nikmalarini, balki liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu

jihtadan san'at va madaniyat yo'nalishi talabalarida jamoani boshqarish, tashkiliy faoliyatni samarali yo'lga qo'yish, kommunikativ hamkorlikni amalga oshirish hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda san'at va madaniyat sohasini rivojlantirish, mazkur yo'nalishdagi faoliyatni samarali tashkil etish hamda boshqaruv kompetensiyalariga ega mutaxassislarni tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, madaniyat va san'at ta'limida liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish talabalarda tashkilotchilik, kommunikativlik, boshqaruvchanlik va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda, milliy g'urur, vatanparvarlik va kasbiy mas'uliyat kabi ma'naviy-axloqiy sifatlarning kamol topishiga ham xizmat qiladi. Zero, "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [..]— degan konseptual yondashuv oliy ta'lim zimmasiga zamonaviy boshqaruv ko'nikmalariga ega, tashabbuskor va liderlik salohiyati rivojlangan mutaxassislarni tayyorlash vazifasini yuklamoqda. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim tizimida talabalarning liderlik va tashkilotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik ta'minotni integrativ yondashuv asosida takomillashtirish dolzarb pedagogik zarurat hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-son Farmoni, 2018-yilning 15-fevralidagi "Madaniyat va sport sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni, "Madaniyat va san'at sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga juda katta hissa qoshgan.

Respublikamizda madaniyat va san'at sohasi talabalarining boshqaruv hamda liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, U. Nishonaliyevning ta'lim menejmenti va rahbarlik faoliyatiga oid ilmiy qarashlarida boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. N. Muslimov hamda O. Tolipovlarning ilmiy izlanishlarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, pedagogik boshqaruv va innovatsion faoliyatni tashkil etishning nazariy asoslari ochib berilgan. R. Ishmuhamedov tadqiqotlarida interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida talabalarning kommunikativ hamda liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil etilgan. Shuningdek, N. Egamberdiyeva, A. Xoliqov va Sh. Sharipovlarning ilmiy ishlarida yoshlarning ijtimoiy

faolligi, tashkilotchilik qobiliyati, jamoa bilan ishlash madaniyati hamda liderlik fazilatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlarida talabalarda liderlik va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida S.D. Smirnov kasbiy kompetentlikni shakllantirish va bo'lajak mutaxassislarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlashning zamonaviy pedagogik asoslarini ishlab chiqqan, I.A. Zimnyaya esa kompetensiyaviy yondashuv doirasida talabalarda ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalar, jumladan liderlik va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning nazariy asoslarini asoslab bergan. Ye.V. Bondarevskaya shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi asosida talabalarning ijtimoiy faolligi, mustaqil qaror qabul qilish va liderlik sifatlarini shakllantirish mexanizmlarini yoritgan, A.V. Xutorskoy esa "kalit kompetensiyalar" tizimi doirasida liderlik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirgan. V.A. Slastenin ilmiy maktabi vakillari tomonidan innovatsion pedagogik faoliyat, ta'limni boshqarish va liderlik sifatlarini rivojlantirishning texnologik asoslari chuqur o'rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarda talabalarda liderlik va boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha qator zamonaviy ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. J. C. Maxwellning keyingi nashr va ishlanmalarida zamonaviy liderlikning o'zgaruvchan muhitga moslashuvi, shaxsiy ta'sir va jamoani ilhomlantirish mexanizmlari yoritilgan. J. Northouse o'zining yangilangan tadqiqotlarida liderlikning transformatsion, xizmatkorlik (servant leadership) va adaptiv modellarini ta'lim jarayonida qo'llashning nazariy asoslarini keng tahlil qilgan. D. Goleman va hamkorlari emotsional intellektning zamonaviy liderlik samaradorligiga ta'sirini, ayniqsa jamoa boshqaruv va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishdagi rolini chuqur o'rgangan. A. Bandura ijtimoiy-kognitiv nazariya asosida o'z-o'zini samarali boshqarish (self-efficacy) va liderlik qobiliyatlari shakllanishi o'rtasidagi bog'liqlikni asoslab bergan. R. Boyatzis "rezonansli liderlik" konsepsiyasi orqali liderning emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish modelini taklif etgan. A. Pearce va C. Manz esa "shared leadership" (taqsimlangan liderlik) yondashuvini ishlab chiqib, jamoaviy boshqaruvda liderlik funksiyalarining barcha a'zolar o'rtasida taqsimlanishi samaradorligini asoslab bergan.

Muhokama va natija. Bugungi kunda O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamlislohotlar amalga oshirilmogda. Kredit-modul tizimi, raqamli ta'lim texnologiyalari, dual ta'lim va innovatsion pedagogik metodlarning joriy etilishi talabalarning kasbiy va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilmogda. Bu esa bo'lajak mutaxassislarning raqobatbardoshligini oshirish va ularni zamonaviy mehnat bozori talablariga mos holda tayyorlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmogda.

Xulosa. Talabalarning liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik asoslarini kompetensiyaviy, integrativ, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga

asoslangan hamda innovatsion-raqamli yondashuvlar tashkil etadi. Bu keltirilgan yondashuvlar talabalarni mustaqil fikrlashga, jamoada samarali ishlashga, innovatsion faoliyat yuritishga va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada zamonaviy jamiyat talablariga mos, yuqori liderlik salohiyatiga ega va raqobatbardosh mutaxassislarini tayyorlash imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурахмонов М., Раҳмонов Н. Маданиятшунослик. Ўқув қўлланма, тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. –Тошкент: 2015.
2. Пугаченкова Г.А., Ремпел Л.И. История искусств Узбекистана. С древнейших времен до середины девятнадцатого века. –Москва: Искусство, 1965.
3. Тўраев Ф. Бухоро муғаннийлари. –Тошкент: Фан, 2009.
4. Шахермайр Ф. Александр Македонский. –Москва: Терра-Книжный клуб, 1999.
5. Европейский кредит тизими (ЕСПС). - Алматы-2003. — 150 С.
6. Ефимов А. Б. Олей беккув юртлар как математик притчаалар дхалплами. 2006. - 250 п.

